



**Acumen:** International Journal of

Multidisciplinary Research

ISSN: 3060-4745 IF(Impact Factor)10.41 / 2024

Volume 1, Issue 4

## **BUYRAK VA SIYDIK TOSH KASALLIKLARI - SABABLARI, ALOMATLARI, TASHXISLASH VA DAVOLASH USULLARI**

**Ismoilova.M, Ahmedova.Z**

Central Asian Medical University Davolash ishi 223-guruh talabasi, Central Asian Medical University “Kimyo va farmakalogiya kafedrasi” katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Buyrakda toshlar – kishi kasallikning birinchi alomatlari namoyon bo`lishigacha (masalan, bel sohasida og`riqlar yoki buyrak kolikalari) sezal olmaydigan patologiya hisoblanadi. Siy dik-tosh kasalligi va buyrak tosh kasalligi ko`pincha bitta kasallik deb adashtiriladi. Aslida, siy dik-tosh kasalligi buyrak tosh kasalligining oqibati bo`lib, simptomlari va davolashda farq qiladi. Siy dik-tosh kasalligiga nima sabab bo`ladi va u qanday davolanadi?

**Kirish:** Siy dik-tosh kasalligi (urolitiaz) – bu siy dik ajratish tizimida, ya`ni buyrakda, siy dik pufagida va siy dik yo`llarida toshlar (konkrementlar) mavjudligi bilan harakterlanadigan surunkali, retsidiyvanishga moyil bo`lgan modda almashinushi kasalligidir. Siy dik-tosh kasalligi boshlanishi va rivojlanishining asosiy sababi modda almashinushi buzilishi bo`lib, bu toshlarni shakkantiruvchi erimaydigan tuzlarning hosil bo`lishiga olib keladi. Toshlarning soni va ularning joylashishi juda turlicha bo`lishi mumkin. Siy dik-tosh kasalligi shifoxonalarning urologik bo`limiga gospitalizatsiya sabablarining 30-40 foizini tashkil etadi.

Yomon suv yoki bir xilda ovqatlanish, kishi yashaydigan mintaqaning iqlim xususiyatlari, masalan, juda issiq iqlim, ma`lum bir dori-darmonlar qabul qilish, siy dik tizimining anomaliyalari va siy dik yo`li strikturasi, giperparatireoz, A va D vitaminlarining yetishmasligi, siy dik ajratish tizimining surunkali yallig`lanish kasalliklari (pielonefrit, sistit), shuningdek, irsiy omil ham siy dik tosh kasalligi rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Siy dik-tosh kasalligining asosiy sabablari:

- Moddalar almashinuvining buzilishi;
- Siy dik chiqarish yo`llaridagi yallig`lanish jarayonlari;
- Siy dik oqishining qiyinlashuvi (buyraklarning tushishi, siy dik yo`llarining nuqsonlari).

Kasallik rivojlanishiga olib keluvchi omillar:

- Issiq iqlim sharoitida yashash;



- Noto`g`ri ovqatlanish;
- Ba`zi dorilarni qabul qilish (antatsidlar, sulfanilamidlar).

Urolitiazning xarakterli belgilari:

- Bel og`rig`i

Ba`zi hollarda kasallik simptsomsiz o`tishi mumkin. Ayollarda siydk-tosh kasalligi ko`pincha sistit va kichik chanoq a`zolarining yallig`lanishi bilan birga davom etib boradi.

Note!!! Agar sizda ham shunga o`xshash belgilar borligini aniqlasangiz, darhol shifokorga murojaat qiling. Kasallikning oqibatlarini bartaraf etishdan ko`ra oldini olish osonroq.

Diagnostika:

- Tos a`zolarini UZI qilish
- Qovuq rentgeni (sistografiya)
- Siydk chiqarish tizimining rentgeni (ekskretor urografiya)
- Buyraklar rentgeni (antitegrad pielografiya)
- Umumiy siydk analizi

Uroloitiazni davolash:

Siydk tosh kasalligini davolash kichik toshlar uchun konservativ bo`lishi mumkin.

- Siydk haydovchi preparatlar;
- Antibakterial preparatlar;
- Toshlarni eritadigan preparatlar.

Katta toshlar (bir necha sm) uchun quyidagilar qo`llaniladi:

- Jarrohlik yo`li bilan olib tashlash;
- Ultratovushli parchalash (masofaviy to`lqinli litotripsiya).

Tegishli davolanishning yo`qligi quyidagi asoratlarga olib kelishi mumkin:

- Gidronefroz;
- Pielonefrit;
- Buyrak yetishmovchiligi.

Siydk tosh kasalligida parhez toshlarning turiga bog`liq bo`ladi. Quyidagilarni chiqarib tashlash tavsiya etiladi:

- Oksalat toshlari: oksalat kislotaga boy mahsulotlar (oksalat, kartoshka, apelsin, salat);
- Urat toshlari: jigar, buyraklar, go`shtli taomlar;



- Fosfat toshlari: sut va un mahsulotlari, go'sht, baliq, o'simlik yog'i. Toshlari shakllanishi sabablari va tarkibiga qarab, bir necha turga bo'linadi:
  - Kalsiyli – 70% gacha;
  - Siydk kislotali – 12% gacha;
  - Infeksiyalangan – 15% gacha;
  - Sistinli – 2-3% gacha.

### **Buyrak tosh kasalliklarining alomatlari**

Toshning joylashgan joyiga qarab, bemorda turli xil belgilar kuzatilishi mumkin, ushbu kasallik uchun asosiy alomatlar quyidagilardan iborat:

Paroksimal og'riqlar. Buyrakdagi tosh va siydk pufagining yuqori qismidagi tosh odatda orqa tarafdan yoki yon tarafdan qovurg' alarming ostidagi og'riq bilan harakterlanadi. Og'riq kuchli va o'tmas bo'lishi mumkin, intensivligi 20-60 daqiqagacha davriylik bilan o'zgarishi mumkin. Ko'pincha og'riq boshlanishiga jismoniy stress, katta miqdorda suyuqlik ichish yoki siydk haydovchi preparatlarni qabul qilish turtki bo'ladi. Toshning siydk yo'llari bo'ylab karakatlanishi sayin og'riqning joyi o'zgaradi, og'riq beldan qorin, oraliq, sonning ichki qismiga, yorg'oq sohasiga o'tadi. Bu alomatlar tez-tez siydk chiqarishga undashlar bilan to'ldiriladi. Buyrak kolikalarini o'tkir xirurgik kasalliklar bilan adashtirmaslik juda muhimdir, masalan *o'tkir appenditsit*, *o'tkir xoletsistit*, *o'tkir pankreatit*, ichak o'tkazmasligi, churra qisilishi, bachadondan tashqari homiladorlik, *oshqozon yarasi perforatsiyasi*, o'n ikki barmoqli ichak yarasi. Shuning uchun bu belgilar mavjud bo'lganda darhol shifokor bilan maslahatlashish va kasallikning sababini imkon qadar tezroq aniqlash kerak.

Siydikka qon aralashganligi. Siydk-tosh kasalligida siydk bilan qon kelishidan oldin buyrak kolikasi kuzatiladi. Cho'kmali loyqa yoki badbo'y hidli siydk ham toshning siljishini ko'rsatish mumkin.

Umumiy ahvolning yomonlashishi, ayniqsa, ko'ngil aynishi, qayd qilish. Bu alomatlar ayniqsa yallig'lanishning boshlanishi – piolonefrit uchun xosdir. Qum yoki tosh chiqishi – tosh chiqqanda varaja va yuqori isitma paydo bo'lishi mumkin.

### **Buyrakda tosh bo'lganda o'tkaziladigan tekshiruvlar**

Yuqorida keltirilgan shikoyatlar yuzaga kelganda, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha tekshiruvlarni belgilaydigan va keyingi davolanish to'g'risidagi qaror qabul qiladigan urolog – shifokorga murojaat qilish kerak.

Asosiy tekshiruv quyidagilarni o'z ichiga oladi:



➤ Anamnezni yig`ish, bemorni tekshirish;

➤ Qon va siydkni umumiyl klinik tahlil qilish;

➤ Siydk chiqarish tizimining ultratovush tekshiruvi. Ushbu noinvaziv, xavfsiz va og`riqsiz tekshirish usuli davolash davomida dinamik nazorat qilish uchun bir necha marta ishlatishi mumkin;

➤ Ko`zdan kechirishli va ekskretor urografiya.

Qo`shimcha tekshiruvlar quyidagilarni o`z ichiga olishi mumkin:

➤ Multispiral kompyuter tomografiysi: bu toshni ko`rish, uning zinchligi, hajmini hisoblash, siydk tizimining arxitektonikasi, atrofdagi to`qimalarning holatini ko`rish imkonini beradi. Agar kerak bo`lsa, 3D – rekonstruksiya amalga oshirish mumkin;

➤ Buyraklar funksiyasini va uning buzilish darajasini o`rganishga imkon beruvchi dinamik va statik nefrostsintografiya;

➤ Antibiotiklarga sezuvchanlik bilan siydk ekish siydk yo`lidagi infeksiyani, yallig`lash darajasini aniqlash mumkin.

### **Buyrakda toshni davolash**

Ko`rik natijalarini olgandan so`ng urolog muayyan klinik holat uchun davolash taktikasini aniqlaydi. Bugungi kunda urologlar arsenalida turli xil davolash usullari mavjud, ular orasida:

- ✓ Toshning mustaqil chiqib ketishiga yo`naltirilgan dori – darmonlar;
- ✓ Toshni eritishga qaratilgan medikamentoz davolash;
- ✓ Ochiq jarrohlik aralashuvlar;
- ✓ Distantion zarb – to`lqinli litotripsiya;
- ✓ Endoskopik kontakt litotripsiya;
- ✓ Teri orqali nefrolitotripsiya
- ✓ Endoskopik jarrohlik aralashuvlar.

Yaqin vaqtgacha siydk-tosh kasalligini davolashda ochiq jarrohlik muolajalari yetakchi usul hisoblangan, ammo tibbiy asbob – uskunalarning rivojlanishi sababli ular ikkinchi darajali bo`lib qoldi va hozirda faqat qat`iy ko`rsatmalar mavjud bo`lganda qo`llaniladi. Distantion zarb – ro`lqinli litotripsiya, endoskopik usullar (kontakt litotripsiya), teri orqali nefrolitotripsiya kabi minimal invaziv usullarga ko`proq ahamiyat berilmoqda.

Siydk-tosh kasalligini davolash uchun “oltin standart” distantion zarb – to`lqinli litotripsiya bo`lib, u har qanday lokalizatsiyali siydk tizimidagi toshlarning 90 foizini olib tashlashga imkon beradi. Distantion zarb – to`lqinli litotripsiyanı

amalga oshirishda zarbalar to'lqini to'qimalar orqali o'tib va ularni shikastlamasdan toshni kichik fermentlargacha parchalaydi va ular keyinchalik asta-sekin siydik bilan birga chiqib keta boshlaydi. Barcha davolash usullari bir-birini to'ldiradi va har bir bemor uchun toshning muayyan lokalizatsiyasi, kattaligi, hajmi, zichligi, siydik tizimining ma'lum anatomiyasidan kelib chiqib individual davolash usullari tanlanadi.

**Xulosa:** Tibbiy yordam ko'rsatish usulini tanlash (kuzatuv, konservativ davo, jarrohlik aralashuvi) barcha turdag'i siydik-tosh kasalligini diagnostika qilish va davolash uchun zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan malakali urologlar tomonidan hal qilinishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

